
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2023 YILNING 9 OYI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Shahar hokimligiga 2023-yilning 9 oyi davomida shahar hokimligiga barcha manbaalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan jami **473 ta** (616ta) murojatlar shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **208ta** (315ta), Halq qabulxonasi orqali 114 ta (132ta), Bosh Prokuratura ishonch telefoni orqali **23 ta** (23ta) va shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri **128ta** (146ta) yozma murojaatlar kelib tushgan. (Bu ko'rsatgich 2021 yilning shu davrida 616 tani tashil etib, 143 taga yoki 23,2% kamaygan).

Mazkur murojaatlarning **252 tasi** (53,3%) ijobiy hal etilgan, **206 ta** (43,5%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan, **15 ta** (3,2%) murojaat o'rganish jarayonida.

Murojaatlar sohalari kesimida tahlil etilganda, Boshlang'ich to'lovsiz uy-joy olish **105 ta**, Yo'llarni ta'mirlash **95 ta**, Moddiy yordam ajratish masalasida **72 ta**, Obodonlashtirish masalasida **61 ta**, Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida **39 ta**, Qishloq xo'jaligi sohasida **16 ta**, Uy-joylarni ta'mirlash **14 ta**, Tomorqalarni sug'orish masalasida **11 ta**, Ichimlik suvi masalasida **9 ta**, Raxbarlarning faoliyati masalasida **8 ta**, Ish bilan ta'minlash masalasida **6 ta**, Elektr ta'minoti **5 ta**, Daftarga (*Temir, Ayollar, Yoshlar*) kiritish masalasida **5 ta**, Oilaviy munosabatlar masalasida **2 ta**, Kredit olish, Raxbarlar qabuliga kirish hamda Haj va Umra masalalarida **1 tadan** hamda boshqa sohalarga oid **22 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Eng ko'p murojaatlar shaharning Ziynat **60 ta** (12,7%), Kokilon **35 ta** (7,4%), Pakana **33 ta** (7,0%), Qo'chqorchi **31 ta** (6,5%), X.Olimjon **29 ta** (6,1%), Bog'bon **25 ta** (5,3%), Do'stlik **23 ta** (4,9%), Polmon **18 ta** (3,8%), Yoshlik **21 ta** (4,4%), Arsif **14 ta** (2,9%), Huvaydo **14 ta** (2,9) mahalla fuqarolar yig'inlariga to'g'ri kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni kengaytirish, mavjud dolzarb muammolarni aniqlash, ularni bevosita joyida bartaraf etish yuzasidan aniq va tezkor choralar ko'rish maqsadida tasdiqlangan reja jadvallar asosida shaxsiy hamda **ommaviy sayyor qabullar** o'tkazib borilmoqda.

Xususan, shahar hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-jadvalga asosan 2023-yil 9 oyi davomida jami **66 marotaba** qabullar tashkil etilib, shundan, **28 marotaba** shahsiy hamda **38 marotaba** ommaviy sayyor qabul o'tkazilgan.

Qabullar davomida jami **601 nafar** fuqarolarning murojaatlari ro'yxatga olingan bo'lib shundan, **329 nafar** (54,7%) fuqaroning murojaatlari ijobiy hal etildi, **260 nafar** (43,3%) fuqaroning murojaatiga qonuniy tushuntirish berildi, **12 nafar** (2%) fuqaroning murojaatlarini belgilangan muddatlarda o'rganib chiqib, axborot berish uchun tegishli raxbarlarga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

2023-10-04 10:47:01